



**O'QUVCHINI JALB ETISHISHDA SIR VA HAYAJONING ROLI:  
“MEET ME IN ISTANBUL” HIKOYASI TAHLILI**

**Ramazonova Sitora Qurbon qizi,**  
*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Unversiteti*  
*Ingiliz tili filologyasi fakulteti 1-bosqich talabasi*  
[ramazanovasitora51@gmail.com](mailto:ramazanovasitora51@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183698>

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada, Richard Chisholmning “Meet Me in Istanbul” asarida sir va hayajonning o'quvchini jalb etishdagi roli tahlil qilinadi. Asarning syujeti, voqealarning rivojlanishi, qahramonlar xarakteri va sirli unsurlarning qanday yo'l bilan o'quvchini qiziqtirishga xizmat qilishi muhokama etiladi. Shuningdek, maqolada boshqa adabiy asarlardagi sir va hayajon elementlari bilan qiyosiy tahlil keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *sir, hayajon, detektiv janr, sarguzasht, syujet, adabiy tahlil.*

Adabiyotning eng muhim jihatlaridan biri – o'quvchini asarga jalb qila olishdir. Ayniqsa, sir va hayajonga boy asarlar kitobxon e'tiborini tortishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo adabiyotida sirli voqealar rivojiga asoslangan asarlar ko'p uchraydi. Masalan, Agata Kristining O'n kichkina negr bolasi, Edgar Allan Poning O'g'irlangan xat, Dastin Tompsonning Ko'zgdagi odam asarlari sir va hayajon orqali o'quvchini o'ziga jalb etadigan mashhur hikoyalardandir. Shu kabi asarlardan biri – Richard Chisholmning Meet Me in Istanbul hikoyasidir. Ushbu detektiv-sarguzasht asar Londondan Istanbulga yo'l olgan bosh qahramon Tom Smitning sarguzashtlari haqida hikoya qiladi. Hikoya davomida sirli yo'qolish, ta'qib, firibgarlik kabi hodisalar aks etgan. Muallif sir va hayajon vositasida o'quvchini qiziqtirish uslubidan mohirlik bilan foydalanadi. Quyida asarning asosiy unsurlari tahlil qilinadi.

Richard Chisholmning Meet Me in Istanbul asari sir va hayajonga boy bo'lib, o'quvchini bir lahzaga ham befarq qoldirmaydi. Hikoya bosh qahramon Tom Smitning Londondagi Heathrow aeroportida sabrsiz holda kutishi bilan boshlanadi. Uning sabrsizligi bejiz emas – u uzoq kutilgan uchrashuvni orziqib kutmoqda. Tomning cho'ntagida Angela yozgan xat bor. U xatni yana bir bor o'qib chiqadi: Angela uni Istanbulda kutayotganini yozgan. Tom nihoyat uni ko'rish imkoniga ega bo'lishidan juda xursand. Hikoyaning boshlanishi juda muhim, chunki aynan shu qism o'quvchini asarga bog'laydi. Yozuvchi voqealar muhitini bahor fasli, aprelning quyoshli kuni bilan tasvirlaydi. Bu tasvir kitobxon kayfiyatiga ta'sir o'tkazib, uni hikoyaga yanada yaqinlashtiradi. Ba'zi hikoyalarning boshlanishi sust bo'lsa-da,



## XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

kulminatsion nuqtaga yetganda o'quvchi qiziqib ketadi. Ammo bu asarning boshlanishi ham darrov qiziqish uyg'otadi.

Sir va hayajonning kuchi–Tom nihoyat Istanbul sari yo'l oladi. U samolyotda Kemal ismli yigit bilan tanishadi. Kemal Londonda o'qiydi, ammo tug'ilgan yurti – Istanbuldandir. Yozuvchi bu qahramonni samimiy va ochiqko'ngil inson sifatida tasvirlaydi. Kemal hatto Tomga telefon raqamini berib, yordam kerak bo'lsa, bemalol murojaat qilishi mumkinligini aytadi. Bu kichik tafsilot Kemalning mehribon yigit ekanligini ochib beradi. Tom Istanbulga yetib kelgach, avtobus oynasidan uzoqdan Angelani ko'rib qoladi. Biroq qizning yonida ikkita begona erkak bor edi. Tomning ko'ngliga shubha oralaydi. U Angela bilan uchrashuvga kelishilgan vaqtda uni qayta ko'rishni orziqib kutadi. Biroq kutilmaganda Angela uchrashuvga kelmaydi. Bu esa o'quvchini savollarga tutadi: Angela qayerda? Nima sababdan uchrashuvga kelmadi?

Hikoyachi o'quvchini sirli voqealarga yetaklash uchun detallarni ustalik bilan joylashtirgan. Masalan, uchrashuv joyida kulrang palto kiygan, gazeta o'qib o'tirgan noma'lum shaxs tasvirlanadi. Bu detallar kitobxonni Angela yo'qolishining sababini topishga undaydi.

Hikoya sirining ochilishi–Angela kelmagach, Tom uni izlashga tushadi. U qiz ishlaydigan kompaniyaga boradi. Angela eksport va import bilan shug'ullanadigan korxonada ishlardi. Bu yerda Tom kompaniya rahbari Dunya bilan uchrashadi. Dunya unga Angelaning avtohalokat tufayli vafot etganini aytadi. Bu xabar Tomni larzaga soladi. Axir u Istanbulga kelgan kuni Angela tirik ekanini o'z ko'zi bilan ko'rgan edi! Hikoyaning sirlari shu joydan boshlab asta-sekin ochila boshlaydi. O'quvchi qizning aslida halok bo'lmaganini tushunadi, ammo uning qayerda ekanligi sirligicha qoladi. Sirni topishga u ancha harakat qiladi. Shu vaqt yangi obrazlar hikoyaga qo'shiladi. Hikoyachi yangi rollarni shunchaki qo'shmaydi – hikoyadagi sirni topishga qiziqqan o'quvchi ularni hikoya davomida kashf qiladi.

Shulardan biri – Pennington. Tom konsullikka tashrif buyurib, u bilan uchrashadi. Biroq Pennington ham Dunya aytgan gaplarni takrorlaydi. Sirli voqealar davom etadi: yana o'sha kulrang palto kiygan notanish odam Tomni har qadamda kuzatib yuradi. Endi hikoyaga Angelaning do'sti Julie qo'shiladi. U Tomning raqamini topib, unga qo'ng'iroq qiladi va uchrashib olishlarini aytadi. Ular uchrashadi. Julie Angelaning dugonasi bo'lib, Tom haqida ko'p eshitganini aytadi. Shuningdek, Angelaning oxirgi paytlarda ish bilan bog'liq muammolari borligini bilishini, lekin aynan qanday muammo ekanligini bilmasligini aytadi. Tom Angela unga yozgan xatda ham uchrashuvga kelolmasligining sababini ishi bilan



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

bog'laganini eslaydi. Bu esa Tomni o'ylantiradi: Qanday muammo ekanki, Angela yo'qolib qoldi?

Angela haqidagi ma'lumotlarni jamlab borgan sari, Tom uning yo'qolishi aynan ishiga bog'liq ekanini tushunib yetadi. Hattoki uning ota-onasi ham qizlarining tirik yoki vafot etganidan bexabar edi. Tom bu sirni yechish uchun Kemal bilan maslahatlashadi. Birinchi navbatda, ular Tomni kuzatib yurgan noma'lum insonni hal qilishlari kerak edi. Shu sababli Tom va Kemal reja tuzishadi: Tom o'zini Londonga ketganday qilib ko'rsatadi. Keyin, Tomning iziga tushgan odamlar bunga ishonishadi. Shu orada Kemal Dunya bilan ishxonada uchrashib, sirlarni yanada chuqurroq o'rganishga harakat qiladi. U ishxona yaqinida yashirin ustaxona borligini bilib oladi. Haqiqat oshkor bo'lgandan keyin aslida, Angela o'z korxonasining noqonuniy ishlari – giyohvand moddalar savdosi bilan shug'ullanayotganini bilib qolgan edi. Shu sababli, korxonada rahbari Dunya uni asir qilib ushlab turgan edi. Bu voqea hikoyadagi asosiy tugun bo'lib, faqat oxirida yechiladi. Tom va Kemal kechasi Angela joylashgan korxonaga yashirincha kirishga harakat qilishadi. Biroq ularni korxonada xodimlari sezib qoladi. Bu lahzalar hikoyaning eng hayajonli nuqtasi bo'lib, o'quvchini yanada qiziqtiradi. Hikoya tezkor rivojlanishi bilan kitobxonni o'ziga bog'lab turadi. Nihoyat, Tom va Kemal Angeleni qutqarishga muvaffaq bo'lishadi. Dunya va uning sheriklari jinoyati fosh etiladi.

Boshqa adabiyotlar bilan qiyosiy tahlil.

Sir va hayajon elementlari aks etgan boshqa mashhur asarlar bilan Meet Me in Istanbul hikoyasini taqqoslab ko'rsak, uning o'ziga xos jihatlari yanada yaqqol ko'rinadi.

1. Agata Kristi – O'n kichkina negr bolasi

Ushbu romanda ham sirli o'limlar sodir bo'lishi o'quvchini shubha va hayajonga to'la sarguzashtga yetaklaydi. Odamlar birin-ketin yo'qoladi, lekin haqiqiy qotil kimligi sir bo'lib qolaveradi.

2. Edgar Allan Po – O'g'irlangan xat

Bu hikoyada ham sirli holat kitobxonni o'ylashga majbur qiladi. Asarda sirni ochishning noan'anaviy usuli kitobxonni lol qoldiradi.

3. Dastin Tompson – Ko'zgudagi odam

Ushbu hikoyada ham sirli jinoyatlarning ochilishi qahramon va o'quvchi uchun ham hayajonli kashfiyotga aylanadi.

4. Agata Kristi-Sharqiy Ekspressda qotillik

Bu hikoyada esa Istanbuldan Parijga yo'l olgan mashhur Sharqiy Ekspress poyezdida sodir bo'lgan sirli qotillik haqida so'z boradi.



## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

Bu asarlarga o'xshash jihatlar shundan iboratki, Meet Me in Istanbul hikoyasida ham sir va hayajon kitobxonni asar oxirigacha ushlab turadi. Biroq, Chisholm o'z uslubida Istanbul muhitini real tasvirlashga urg'u bergan. Richard Chisholmning Meet Me in Istanbul asari sir va hayajonning kuchi bilan kitobxonni asarga bog'lab turadigan noyob asarlardan biridir. Muallif voqealar rivojini tobora sirlilashdirib borish orqali kitobxonda qiziqish uyg'otadi. Syujetning tezkor rivojlanishi, ta'qib, sirli shaxslarning paydo bo'lishi va kutilmagan burilishlar hikoyaning asosiy qudratli jihatlaridan hisoblanadi. Sirli hikoyalar har doim o'quvchini o'ziga tortgan va Meet Me in Istanbul ham ushbu an'anani davom ettirgan asarlardan biridir. Hikoya davomida o'quvchi o'zini bosh qahramon bilan birga voqealarning markazida his qiladi va sirlar fosh etilguncha asardan uzilmaydi. Shu sababli, bu asar adabiyot ixlosmandlari uchun qiziqarli va esda qolarli o'qish bo'lib xizmat qiladi.

"Meet Me in Istanbul" hikoyasi sir va hayajon uyg'otish orqali o'quvchini o'ziga jalb etadi. Uning har bir bo'limi o'quvchini yangi savollarga yetaklaydi va hikoya oxirigacha qiziqishini susaytirmaydi. Asarning o'ziga xos jihati shundaki, o'quvchi voqealarning ichida bo'lib, Tom bilan birga sirlarni ochishga harakat qiladi. Hikoyaning boshlanishida paydo bo'lgan tugun esa yakunda yechiladi va o'quvchiga kutilmagan javobni taqdim etadi.

Xulosa qilib shuni aytamanki, ushbu hikoya nafaqat qiziqarli sarguzashtlarga boy, balki o'quvchini doimiy hayajon va qiziqish bilan ushlab turadigan kuchga ega. Sirli hikoyalar har doim o'quvchini o'ziga tortgan va Meet Me in Istanbul ham ushbu an'anani davom ettirgan asarlardan biridir. Hikoya davomida o'quvchi o'zini bosh qahramon bilan birga voqealarning markazida his qiladi va sirlar fosh etilguncha asardan uzilmaydi. Shu sababli, bu asar adabiyot ixlosmandlari uchun qiziqarli va esda qolarli o'qish bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Chisholm, R. (1995). Meet Me in Istanbul. Oxford Bookworms.
2. Christie, A. (1934). Murder on the Orient Express. Collins Crime Club
3. Christie, A. (1939). And Then There Were None. Collins Crime Club.
4. Po, E. A. (1844). The Purloined Letter. Graham's Magazine.
5. Tompson, D. (1987). The Man in the Mirror. New York Press.